Surxondaryo viloyatida chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

2026-yil yanvar-sentabr dastlabki ma'lumot

I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI
II.ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI
III.UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI
IV.META MA'LUMOTLAR
V.ALOQADOR BOSHQA HAVOLALAR


I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026-yil 1-oktabr holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 5 039 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 73 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 4 966 tani tashkil qildi.

2026-yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 26 574,2 mlrd so'mni tashkil etib, 2025-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 119,1 % ga yetdi.


Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 1 290,5 mlrd so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 137,7 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 25 283,7 mlrd so'm (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 118,2 %) shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 5 286,4 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 136,0 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati *(% da)*



Mavzuga doir havola: Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati (oylik)

Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi
(ulushi foizda)




II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026-yil 1-oktabr holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat korxonalari soni 2 549 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko‘rsatayotgan yirik korxonalar soni 16 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 2 533 tani tashkil qildi.

Viloyat bo‘yicha 2026-yilning yanvar-sentabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 11 197,3 mlrd so‘mni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan15,4 % ga oshdi.


Kichik biznes subektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi 10354,4 mlrd so‘mni tashkil qilib, 2025-yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 113,4 % ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda jami ulgurji savdo hajmidagi ulushi 92,5 % ni tashkil qildi.

Ulgurji savdo hajmi dinamikasi *(mlrd so‘m)*



Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarning eng yuqori o‘sish sur’atiga ega hududlar Sariosiyo (5 905,1 %), Sherobod (304,1 %), Uzun (245,6 %) va Sho‘rchi (243,9 %) tumanlarida kuzatildi.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi o‘sish sur’atlari *(foizda)*




Mavzuga doir havola:Ulgurji savdo hajmi o‘sish sur’ati (oylik)

III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO HAJMI

2026-yil 1-oktabr holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalar soni 1 566 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko‘rsatayotgan yirik korxonalar soni 1 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 1 565 tani tashkil qildi.

2026-yilning yanvar-sentabr oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi
9 806,4 mlrd so‘mga yetdi. 2025-yilning mos davriga nisbatan 21,4 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 77,8 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o‘sish sur’atlari *(foizda)*



IV. META MA’LUMOTLAR

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko‘rsatkichlarini shakllantirishda, O‘zbekiston Respublikasining me’yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko‘rsatmalar va tavsiyalar “Milliy hisoblar tizimi – 2008”, “Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo‘yicha xalqaro tavsiyalar” (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuvi va uning miqdoriy ko‘rsatkichini hisoblash bo‘yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo‘mitasi, 2011) holda ishlatiladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko‘rsatkichlarini shakllantirishda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo‘yicha o‘tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo‘shgan holda hisoblangan.

V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLALAR

Ulgurji savdo hajmi (hududlar kesimida, oylik)
Ulgurji savdo aylanmasining o‘sish sur’ati (hududlar kesimida, oylik)
Chakana savdo aylanmasi hajmi (hududlar kesimida, oylik)
Chakana savdoa ylanmasining o‘sish sur’ati (hududlar kesimida, oylik)
Aholi jon boshiga chakana savdo hajmi (hududlar kesimida, oylik)
Aholi jon boshiga chakana savdo hajmi o‘sish sur’ati (hududlar kesimida, oylik)
Ovqatlanish korxonalari savdo hajmi (hududlar kesimida, oylik)
Ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o‘sish sur’ati (hududlar kesimida, oylik)

Chop etishga masul: Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limi	**Bo'lim boshlig'i:** A. Dusnazarov Tel: +998554518000 (7540)	**Ijrochi:** I. Yusupova Tel: +998554518000 (7541) e-pochta:info@surxonstat.uz	**Manzil:** 190108, Termiz sh. at-Termiziy ko'chasi,7-uy,